


# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ





# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI                                                                                              | 10  |
| <b>Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li</b>                                                                                                                                     |     |
| NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING .....                                                                                                          | 21  |
| <b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b>                                                                                                                                      |     |
| ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                    | 28  |
| <b>Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза</b>                                                                                                                                      |     |
| BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH .....                                                          | 33  |
| <b>Fayzullayev Farrux Sharofovich</b>                                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL .....                  | 41  |
| <b>Safarova Gulbahor Nusratovna</b>                                                                                                                                             |     |
| ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI .....                                                                                                       | 45  |
| <b>Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud</b>                                                                                                                                        |     |
| TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....                                                                     | 49  |
| <b>Soibov Jamshid Raxmatqulovovich</b>                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....                                                                 | 56  |
| <b>Ergashev Qobiljon Ernazarovich</b>                                                                                                                                           |     |
| TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV .....                               | 62  |
| <b>Narziyev Xayotjon Azamatovich</b>                                                                                                                                            |     |
| MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                 | 69  |
| <b>Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich</b>                                                                                                                                     |     |
| MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH. ....     | 75  |
| <b>Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                                       |     |
| XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH ..... | 82  |
| <b>Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich</b>                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI .....                                             | 90  |
| <b>Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar</b>                                                                                                                                        |     |
| DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI .....                                                                                           | 96  |
| <b>Rajabov Shuxrat Ismayilovich</b>                                                                                                                                             |     |
| TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                              | 101 |
| <b>Ismailov Azizbek Madaminovich</b>                                                                                                                                            |     |
| YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                             | 109 |
| <b>Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna</b>                                                                                                                                          |     |



|                                                                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI .....                                       | 115 |
| <b>Turotova Nigora Xolmurod qizi</b>                                                                                                                     |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....                                       | 118 |
| <b>Karimov Olimjon Akramovich</b>                                                                                                                        |     |
| ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ .....                                 | 124 |
| <b>Токсонов Хуршид Эгамбердиевич</b>                                                                                                                     |     |
| VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                           | 129 |
| <b>Botirov Lazizbek Botirovich</b>                                                                                                                       |     |
| MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI .....                                                  | 134 |
| <b>Anvar Raximov Maxmarasulovich</b>                                                                                                                     |     |
| IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI .....                                                 | 139 |
| <b>Marpatov Shavkat Mavlonxonovich</b>                                                                                                                   |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....                   | 145 |
| <b>Qurbonov Jasurbek Pozilovich</b>                                                                                                                      |     |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....                                   | 150 |
| <b>Ташмухамедова Карима Саматовна</b>                                                                                                                    |     |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....                                   | 156 |
| <b>Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev</b>                                                                  |     |
| ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION .....                  | 161 |
| <b>Sattarov R. A.</b>                                                                                                                                    |     |
| MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..                                                              | 167 |
| <b>Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....                                                                                | 171 |
| <b>Narmurodova Sitara Aktamovna</b>                                                                                                                      |     |
| OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS..... | 176 |
| <b>Berdiyev Usmon Tolib o'g'li</b>                                                                                                                       |     |
| TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....                                                                          | 181 |
| <b>Xolmatov Umid Sadirdinovich</b>                                                                                                                       |     |
| TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA) .....        | 186 |
| <b>Kamolov Otabek Quدراتovich</b>                                                                                                                        |     |
| DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....                 | 192 |
| <b>Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar</b>                                                                    |     |
| SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH .....                             | 198 |
| <b>Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon</b>                                                                                     |     |
| HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW .....                                            | 203 |
| <b>Dilafroz Kuchkorova</b>                                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                     | 209 |
| <b>Shirov Javlonbek Akbarovich</b>                                                                                                            |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG.. | 215 |
| <b>Айтмуратова Улбике Жалгасовна</b>                                                                                                          |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI<br>AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL .....                | 222 |
| <b>Muydinov Erkin Djamaldinovich</b>                                                                                                          |     |
| HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...                                                       | 229 |
| <b>Raximov Jo'rabek Raximovich</b>                                                                                                            |     |
| XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI<br>.....                                                  | 236 |
| <b>Shoxida Ibadullayeva</b>                                                                                                                   |     |

# XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI

## Shoxida Ibadullayeva

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

E-mail: [shoxidaibadullaeva@gmail.com](mailto:shoxidaibadullaeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro marketing strategiyalarining nazariy asoslari hamda ularning eksport faoliyati samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro bozorni kompleks o'rganish, mahsulotni maqsadli bozor talablariga moslashtirish, narx siyosatini shakllantirish, logistika tizimini optimallashtirish va branding strategiyalarining eksport salohiyatini oshirishdagi o'zni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy marketing yondashuvlarini samarali qo'llash orqali korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda barqaror eksport rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro marketing, marketing strategiyasi, eksport, global bozor, raqobatbardoshlik, logistika, branding.

**Аннотация.** В данной статье проведён научный анализ теоретических основ международных маркетинговых стратегий и их роли в повышении эффективности экспортной деятельности. Особое внимание уделено исследованию международного рынка, адаптации продукции к требованиям целевых рынков, формированию ценовой политики, оптимизации логистических процессов и развитию брендинга как ключевых факторов повышения экспортного потенциала предприятий. Обосновано, что эффективное применение современных маркетинговых стратегий способствует укреплению конкурентоспособности предприятий на мировом рынке и обеспечивает устойчивое развитие экспортной деятельности.

**Ключевые слова:** международный маркетинг, маркетинговая стратегия, экспорт, мировой рынок, конкурентоспособность, логистика, брендинг.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of international marketing strategies and their role in improving export performance. The study examines the impact of international market research, product adaptation to target market requirements, pricing policy, logistics optimization, and branding strategies on enhancing export potential. Furthermore, it substantiates that the effective implementation of modern marketing strategies strengthens enterprises' competitiveness in the global market and contributes to sustainable export development.

**Keywords:** international marketing, marketing strategy, export, global market, competitiveness, logistics, branding.

## KIRISH

Globalashuv sharoitida xalqaro savdo aloqalarining kengayishi korxonalardan yangi bozorlarni egallash va eksport hajmini oshirishni talab etmoqda. Bunda xalqaro marketing strategiyalari muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda mahsulotni ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas, balki uni to'g'ri bozorga yo'naltirish, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash va raqobatchilar faoliyatini chuqur o'rganish zarur. Shu sababli xalqaro marketing eksport faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda ham eksport sohasida va xalqaro bozorga chiqishda turli marketing aralashmalarini qo'llash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakat sanoatini modernizatsiya qilish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan [1]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakat iqtisodiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport hajmini oshirishga qaratilgan [2]. Shu sababli eksport qilishda xalqaro marketingni qo'llash global bozorlarni egallashda muhim omil sanaladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro marketing strategiyalarining nazariy asoslari va ularning eksport faoliyatidagi roli iqtisodiyot va





marketing fanlarida keng o'rganilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan marketing nazariyasi, raqobat strategiyalari, brending hamda global bozor mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar xalqaro marketing strategiyalarining shakllanishida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotchilar ushbu nazariyalarni milliy iqtisodiyot va eksport faoliyati sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilganlar.

Philip Kotler marketing nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, u marketingni iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash, yaratish va qondirishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida talqin etgan. Uning ilmiy ishlari xalqaro marketing strategiyalarining nazariy asosini tashkil etadi. Kotler tomonidan ishlab chiqilgan 4P modeli (Product, Price, Place, Promotion) global bozorda mahsulotni muvaffaqiyatli joylashtirishda asosiy vosita hisoblanadi [3].

Michael Porter raqobat strategiyalari nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, uning ishlari eksport faoliyatida strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. U korxonalarning global bozorda muvaffaqiyatga erishishi uchun raqobat ustunligi (competitive advantage) tushunchasini asoslab bergan. Porterning "Five Forces" modeli va "Value Chain" nazariyasi eksport qiluvchi korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish va mahsulot qiymatini oshirish imkonini beradi [4].

Jean-Claude Usunier xalqaro marketingda madaniyatlararo omillarni o'rgangan. U turli mamlakatlarda iste'molchilarning xulq-atvori, qadriyatlari va qaror qabul qilish jarayonlari farqlanishini ilmiy asoslab bergan. Uning ishlari eksport faoliyatida marketing strategiyalarini ishlab chiqishda madaniy moslashuv muhimligini ko'rsatadi [5].

Mahalliy olimlardan S. G'ulomov O'zbekiston iqtisodiyotida marketing tizimining rivojlanishi, bozor mexanizmlari va milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi masalalarini o'rgangan. Uning ishlarida marketing strategiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi [6].

A. Vahobov tashqi savdo, eksport salohiyati va milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyasi masalalarini tadqiq qilgan. U eksportni rivojlantirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini asoslab bergan [6]. B. Xodiyev bozor iqtisodiyoti sharoitida marketing va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini o'rgangan. Uning ishlarida marketing strategiyalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida talqin etiladi [7].

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari xalqaro marketing strategiyalarining nazariy asoslarini shakllantirgan bo'lib, ularning g'oyalari eksport faoliyatini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Kotler, Porter va Keegan konsepsiyalari zamonaviy global bozorda marketing strategiyasini ishlab chiqishda eng muhim nazariy poydevor hisoblanadi [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar asosida xalqaro marketing strategiyalarining eksport samaradorligiga ta'siri baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport faoliyatini boshlashda korxona "resurs sarfi" va "nazorat darajasi" o'rtasidagi muvozanatni topishi kerak. Bu iqtisodiyotda **Nazorat-risk balansi** deb ataladi.

- bilvosita eksport: Kam xarajat va kam risk, lekin bozor ustidan nazorat yo'q.
- to'g'ridan-to'g'ri eksport: Distribyutorlar orqali ishlash. Nazorat oshadi, lekin logistika va marketing xarajatlari korxona zimmasiga tushadi.
- strategik alyanslar va qo'shma korxonalar: Mahalliy hamkorning tajribasidan foydalanish.

Zamonaviy globallashuv sharoitida korxonalar faoliyati milliy bozor bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro bozorlarga chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda xalqaro marketing strategiyalari korxonalarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Har bir strategiya mahsulotni joylashtirish, iste'molchilar ehtiyojini qondirish hamda raqobatchilar orasida ustunlikka erishishga xizmat qiladi. Ayniqsa, eksport faoliyatida to'g'ri tanlangan marketing strategiyasi korxonaning daromadliliigi va bozor ulushini sezilarli darajada oshiradi (1-jadval).

### 1-jadval

Xalqaro marketing strategiyalarining turlari va ularning eksport faoliyati samaradorligiga ta'siri

| Strategiya turi        | Mazmuni                       | Eksportdagi roli         |
|------------------------|-------------------------------|--------------------------|
| Standartlashtirish     | Bir xil mahsulot va marketing | Xarajatlarni kamaytiradi |
| Moslashuv (adaptation) | Bozorga moslashtirish         | Talabni oshiradi         |
| Differensiallashuv     | Noyob mahsulot yaratish       | Raqobat ustunligi beradi |



|                       |                            |                              |
|-----------------------|----------------------------|------------------------------|
| Diversifikatsiya      | Yangi bozor va mahsulotlar | Riskni kamaytiradi           |
| Brending strategiyasi | Brend yaratish             | Qo'shilgan qiymatni oshiradi |

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro marketing strategiyalari eksport faoliyatining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir strategiya o'ziga xos ustunliklarga ega bo'lib, ularni to'g'ri joriy qilish orqali korxonalar global bozorda mustahkam o'rin egallashi mumkin. Ayniqsa, differensiallashuv va branding strategiyalari mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshirish hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Eksport faoliyatining muvaffaqiyati ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida marketing omillari alohida o'rin tutadi. Bozorni chuqur o'rganish, iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, narx siyosatini to'g'ri belgilash hamda mahsulotni samarali targ'ib qilish eksport hajmini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, logistika tizimining rivojlanganligi va mahsulot sifati xalqaro bozorda barqaror faoliyat yuritishning muhim sharti hisoblanadi (2-jadval).

## 2-jadval

### Marketing omillarining eksport faoliyati samaradorligiga ta'siri va ularning natijaviy ko'rsatkichlari

| Omil            | Ta'sir darajasi | Natija              |
|-----------------|-----------------|---------------------|
| Bozor tahlili   | Juda yuqori     | To'g'ri strategiya  |
| Narx siyosati   | Yuqori          | Sotuv hajmi oshadi  |
| Reklama         | Yuqori          | Brend tanilishi     |
| Logistika       | Yuqori          | Tez yetkazib berish |
| Mahsulot sifati | Juda yuqori     | Raqobat ustunligi   |

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksport faoliyatida marketing omillarining ta'siri nihoyatda yuqori. Ayniqsa, mahsulot sifati va bozor tahlili asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Ushbu omillarni samarali boshqarish orqali korxonalar nafaqat eksport hajmini oshirishi, balki global bozorda o'z mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Eksport faoliyati murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u marketing faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bozorni o'rganishdan boshlab mahsulotni sotishgacha bo'lgan barcha bosqichlar marketing strategiyasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni tizimli ravishda tashkil etish korxonaning global bozorda muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi (1-rasm).



### 1-rasm. Xalqaro marketing asosida eksport faoliyatini rivojlantirish jarayoni

Mazkur chizma eksport faoliyatining marketing strategiyalari asosida izchil amalga oshirilishini ko'rsatadi. Har bir bosqich – bozor tahlili, mahsulotni moslashtirish, narx va reklama siyosati – o'zaro bog'liq bo'lib, ularning samarali uyg'unligi eksport hajmini oshiradi. Umuman olganda, marketing jarayonini to'g'ri tashkil etish korxonaning global bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Xalqaro marketing eksport faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mahsulotni xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli sotish uchun zarur bo'lgan barcha strategik va amaliy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Oddiy qilib aytganda, eksport – bu mahsulotni tashqi bozorga chiqarish bo'lsa, xalqaro marketing esa aynan shu mahsulotni qanday qilib samarali sotish, bozorda o'z o'rnini egallash va raqobatda ustunlikka erishish yo'llarini belgilaydi.



Xalqaro marketingning asosiy vazifalaridan biri – bozorni chuqur o'rganishdir. Har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari turlicha bo'lgani sababli mahsulotni eksport qilishdan oldin iste'molchilarning didi, ehtiyoji va xarid qilish qobiliyatini tahlil qilish zarur. Shundan kelib chiqib, korxona qaysi bozorga kirish, qaysi mahsulotni taklif qilish va qanday strategiya tanlash bo'yicha qaror qabul qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro marketing mahsulotni moslashtirish (adaptatsiya) jarayonini ham qamrab oladi. Bu degani, mahsulotning dizayni, sifati, qadoqlanishi va hatto funksiyalari ham ma'lum bir bozor talabiga moslashtiriladi. Masalan, rivojlangan davlatlarda ekologik toza mahsulotlarga talab yuqori bo'lsa, boshqa bozorlarda narx omili muhimroq bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – narx siyosati va logistika tizimidir. Eksport narxini belgilashda nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari, balki transport, bojxona va raqobatchilar narxlari ham hisobga olinadi. Shu bilan birga, mahsulotni tez va ishonchli yetkazib berish eksport muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biridir.

Xalqaro marketingning yana bir muhim tarkibiy qismi – reklama va brendingdir. Global bozorda mahsulotni tanitish, iste'molchilar ishonchini qozonish va brend yaratish orqali korxonalar yuqori daromadga erishishi mumkin. Kuchli brend mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshiradi va uni raqobatchilardan ajratib turadi.

Shuningdek, xalqaro marketing eksport faoliyatida risklarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Noto'g'ri bozor tanlash, mahsulotning mos kelmasligi yoki marketing strategiyasining sustligi eksportning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, marketing tadqiqotlari va strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xalqaro marketing eksport faoliyatining ajralmas va hal qiluvchi qismi hisoblanadi. U korxonalarga nafaqat mahsulotni tashqi bozorlarga chiqarish, balki uni samarali sotish, barqaror daromad olish va global bozorda mustahkam o'rin egallash imkonini beradi. Xalqaro marketing strategiyalarini to'g'ri qo'llash orqali korxonalar eksport hajmini oshirishi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro marketing strategiyalari eksport faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bozorni chuqur o'rganish, mahsulotni moslashtirish, to'g'ri narx siyosatini yuritish, logistika tizimini rivojlantirish va brendingni kuchaytirish orqali korxonalar global bozorda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Xalqaro marketing yondashuvlarini tizimli qo'llash eksport hajmini kengaytirish va barqaror iqtisodiy natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlil va xulosalar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- eksportyor korxonalarda marketing tadqiqotlarini muntazam olib borish;
- mahsulotni xorijiy bozor talablariga moslashtirishni kuchaytirish;
- zamonaviy marketing vositalari va raqamli platformalardan keng foydalanish;
- milliy brendlarni yaratish va xalqaro bozorlarda targ'ib qilish;
- logistika va yetkazib berish tizimini takomillashtirish;
- yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish va diversifikatsiya qilish.

Xalqaro marketing strategiyalari eksport faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ularni to'g'ri qo'llash orqali korxonalar mahsulotni xorijiy bozor talablariga moslashtiradi, raqobat ustunligini shakllantiradi va eksport hajmini kengaytiradi. Shu bois marketing yondashuvlarini tizimli ravishda amalga oshirish global bozorda barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishning asosiy sharti hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-286-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7730357>
2. Ibadullayev E. *Mintaqaviy eksport samaradorligiga innovatsion yondashuvlarning ta'sir omillarini tadqiq etish // Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 3, No. 8. – DOI: 10.5281/zenodo.16994631.
3. Kotler P., Keller K. L. *Marketing Management*. 15th ed. – Harlow: Pearson, 2016. – 832 p.
4. Porter M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
5. Kuziboev B., Vlach J., Rajabov A., Ibadullaev E., Matyakubov U., Nazarov M., Mirkhoshimova M. *Quantile and Threshold Effect of Electricity Consumption on Happiness in Central Asia // International Journal of Energy Economics and Policy*. – 2024. – Vol. 14, No. 1. – P. 321–328. – DOI: 10.32479/ijee.15126.
6. Ibadullaev E. *Analysis of Indicators for Utilizing the Export Potential of Regional Territories*. – 2026. – DOI: 10.5281/zenodo.18197942.
7. Vahobov A. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent, 2015.
8. Ibadullaev E. *Identifying Prospective Directions Based on the Analysis of the Region's Export Potential (The Case of Khorezm Region)*. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.17352062.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**







+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)